

HAZRATI ALI HAQIDAGI O'ZBEK VA TURK XALQ QISSALARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR

Farruh Bafoyev,

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti,*

Orcid: 0009-0000-4180-8039

Elektron pochta: farruxshod@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20728718>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va turk xalq og'zaki ijodida yuzaga kelgan hazrati Ali haqidagi qissalarda qo'llangan onomastik birliklar (antroponimlar, toponimlar, zoonimlar va boshqalar) qiyosiy-lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan. Mazkur birliklarning asar badiiyatidagi o'rni, estetik va funksional xususiyatlari yoritilib, obraz yaratish hamda milliy koloritni ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: xalq qissalari, jangnomalar, variant, versiya, hazrati Ali, onomastik birliklar, estetik funksiya, badiiy vosita.

Аннотация. В данной статье ономастические единицы (антропонимы, топонимы, зоонимы и другие), использованные в народных повествованиях об Хазрате Али, сформировавшихся в узбекском и турецком устном народном творчестве, анализируются в сравнительно-лингвопоэтическом аспекте. Освещаются место этих единиц в художественной структуре произведения, их эстетические и функциональные особенности, а также раскрывается их значение в создании образа и выражении национального колорита.

Ключевые слова: народные повести, джангномы (военные хроники), вариант, версия, Хазрат Али, ономастические единицы, эстетическая функция, художественное средство.

Abstract. This article provides a comparative linguopoetic analysis of onomastic units (anthroponyms, toponyms, zoonyms, and others) used in folk narratives about Hazrat Ali in Uzbek and Turkish oral traditions. It examines the role of these units in the artistic structure of the works, highlighting their aesthetic and functional features, and reveals their significance in character creation and in expressing national color.

Keywords: folk narratives, battle epics, variant, version, hazrat Ali, onomastic units, aesthetic function, artistic device.

Kirish. Xalq nasri va qissaxonlik an'anasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan hazrati Ali haqidagi qissalar ijodkor xalqning tarixiy voqelikni poetik tafakkur orqali qayta talqin etishi natijasida yuzaga kelgan asarlardir. Ularda xalqning badiiy tafakkuri o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Xususan, mazkur asarlardagi til birliklari xalqning asrlar davomida shakllangan tarixiy xotirasi mahsuli bo'lib, ularni tahlil etmasdan asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini to'laqonli anglash mushkul. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada hazrati Ali turkumi qissalaridagi onomastik birliklar tahlil qilinadi. Zero, onomastik birliklar (antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, zoonimlar va boshqalar) asar mazmunini boyitish, tarixiylik va ishonchlilikni ta'minlash, qahramon xarakterini ochish hamda milliy koloritni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Hazrati Ali haqidagi qissalar va jangnomalar turkiy xalqlar folklorida keng tarqalgan bo'lib, ularning syujet, obrazlar tizimi va poetik xususiyatlari bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, I. Chyetin turk adabiyotidagi Hazrati

Ali jangnomalarining shakllanishi va taraqqiyotini tahlil qilgan bo'lsa [7], A. O'zalp va I. Toprak tomonidan nashrga tayyorlangan turkcha matnlar ushbu qissalarning variant va versiyalarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi [4; 5].

O'zbek folklorshunosligida Hazrati Ali haqidagi qissalar matni S. Rafiddinov tomonidan nashrga tayyorlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan [6]. Onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari D. Andaniyazova tadqiqotlarida muvaqqat nomlar misolida yoritilgan [1]. Shuningdek, atoqli otlarning lingvistik tabiati va badiiy matndagi funksiyalari B. Jo'rayev hamda E. Begmatov tomonidan tadqiq etilgan [8].

Biroq Hazrati Ali haqidagi o'zbek va turk xalq qissalarida qo'llangan onomastik birliklarning qiyosiy-lingvopoetik xususiyatlari, ularning obraz yaratish va milliy koloritni ifodalashdagi o'rni maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur maqola ana shu masalalarni yoritishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, lingvopoetik va onomastik tahlil metodlaridan foydalanildi. Hazrati Ali haqidagi o'zbek va turk xalq qissalarida uchraydigan antroponim, toponim, zoonim hamda boshqa onomastik birliklar o'zaro qiyoslanib, ularning semantik, funksional va badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, onomastik birliklarning obraz yaratish, tarixiylikni ta'minlash va milliy koloritni ifodalashdagi o'rni folklorshunoslik hamda lingvopoetika tamoyillari asosida yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Qissalarda kelgan shaxs nomlarini tarixiylik mezoniga ko'ra, tarixiy shaxs nomlari va to'qima shaxs nomlariga ajratish mumkin. Masalan, qissalarda Muhammad alayhissalom, hazrati Ali, Abu Bakr, Usmon, Umar, Fotimai Zahro, Xolid ibn Valid, Salmon Forsiy, Bilol ibn Ravoh, Vahshiy, amiri Hamza kabi tarixiy shaxs nomlari xalqning tarixiy xotirasidan darak berib, obrazning semantik yukini oshirib, asar voqealarini o'quvchi tasavvurida haqiqatga yaqinlashtiradi. Qatron, Anqo, Muhtasham, Zarbil, Zafir, Toli Mag'ribiy, Anbariya, Qahqaha kabi to'qima obraz nomlari o'zlari ifodalagan semantik ma'no orqali o'ziga xos ramziylik tashiydi. Mazkur real va badiiy to'qima onomastik birliklar birgalikda tinglovchi va o'quvchiga tarixiy haqiqat, badiiy niyat hamda milliy dunyoqarashni uyg'un holda yetkazishga xizmat qiladi. Masalan, hazrati Ali janglarining oltinchi qissasi "Maqsuraning hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi" deb nomlanib, qissa nomidayoq ikki obraz nomi e'tiborni tortadi: biri Ali, ikkinchisi Maqsura. Mazkur nomlarning o'zi hali voqelikka kirib bormagan tomoshabin uchun muayyan tasavvurlar uyg'otadi: tarixiy muhit, bosh qahramon jasorati, raqib qahramon halokati. Qissaning qisqacha tafsiloti shunday: Omir ibn Sufyonning otasi Muhammad alayhissalomning Makkadan Madinaga hijratlari paytida hazrati Ali tomonidan o'ldirilgan edi. Shu sababli Omir undan o'ch olish payida yurardi. Kofirlar unga bu atrofda Aliga bas keladigan odam yo'qligini, Mag'ribda Muxbir ismli podshoh borligini, faqat ugina bu masalada yordam bera olishini aytishadi. Omir podshoh Muxbirga boradi, Muxbir ham unga yordam berishga rozi bo'ladi va xalqiga shunday deydi: "Kim lashkarimga

boshchilik qilib, jangga olib borsa, unga qizimni beraman”. Avvaldan shoh qiziga oshiq bo‘lgan Maqsura esa fursatdan foydalanib, bu ishga rozi bo‘ladi. Voqealar davomida Maqsura hazrati Ali qo‘lida o‘lim topadi. Xo‘sh, ushbu qahramonga xalq nega aynan Maqsura deb nom berdi? Maqsura arabcha “qusurli” ma’nosini anglatadi. E’tibor qilinsa, ushbu obrazga o‘z nomidan kelib chiqib o‘ziga xos ma’no yuklanagn. Biznincha, Maqsuraning “qusur”i qissadagi ikki jihatda ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, u bir qizga bo‘lgan o‘tkinchi hoy-u havasni deb omonat jondan kechishga, o‘lim bilan yuzlashishga tayyor. Ikkinchidan, ana shu o‘tkinchi havas uning haq dinni ko‘ra olmasligiga, “meni yuz pora qilsang ham Loti-Manotdan qaytmasman” deya botil e’tiqod bilan hazrati Ali qo‘lida mushrik holida halok bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Mazkur turkumdagi “Uhud” qissasida tilga olingan to‘qima obrazlardan yana biri Anbariya deb nomlanadi va unga ham semantik ma’nosiga mos yuqoridagi kabi poetik ma’no yuklanadi. U asarda Hind ismli ayolning qizi bo‘lib, unga qul Vahshiy oshiq bo‘lgan edi. Hind o‘ch olish maqsadida amir Hamzani o‘ldirmoqchi bo‘ladi va bu ishni amalga oshirgan insonga yuqoridagi qissadagi singari qizi Anbariyani berishini aytadi. Buni eshitgan Vahshiy esa Anbariyaga yetishish orzusi sabab amir Hamzani o‘ldiradi. Tarixiy haqiqatga ko‘ra esa Vahshiy Hamza ibn Abu Tolibni o‘z ozodligi uchun o‘ldiradi. Demak, Vahshiy intilgan maqsad – “ma’shuqa” asli erk, ozodlik edi. Shu o‘rinda nominativ birlik ma’nosiga e’tibor qaratamiz: “Anbariya” ismining o‘zagi Anbardir. Lug‘atlarda “Anbar” so‘zining bir necha ma’nolari keladi. Asosiy ma’nosi esa “Hasharotlar tanasidan – oshqozon yoki ichaklaridan chiqadigan mumsimon xushbo‘y modda”dir.[1] Demakki, Anbariya kishiga xush yoqadigan, uni oshiq qiladigan ozodlik ramzidir.

Mazkur turkumdagi qissalardan yana birining nomi “Hazrati Ali tomonidan Qahqahaning o‘ldirilishi” deb nomlanadi. Nomidan ko‘rinib turganidek, qissada bosh qahramon Qahqaha ismli shoh va uning jangchilari bilan kurashadi. Xo‘sh, raqib qahramon nomi nega aynan Qahqaha? Qahqaha – “xoxolab kulish, qattiq kulgu”dir.[2] Asar avvalida “Yomonning kuchi yapaloqqa yetadi” – shoh Qahqaha musulmonlikni qabul qilgan fuqarosini turli qiynoqlarga soladi, o‘g‘lini o‘ldiradi. Asar voqealari davomida esa shoh qo‘rqoqligi sabab saroy ahli kulgusiga qoladi, zabun holatda hazrati Ali qo‘lida halok bo‘ladi. Mazkur turkumga oid turk folkloridagi “Hazret-i Ali’ning Kan kalesi cengi” qissasida esa o‘zini xudo deb biluvchi shoh nomi ham aynan Kahkaha (Qahqaha) dir. Asarda unga shunday ta’rif beriladi: “Meğer kal’anun içinde oturan mel’un Tanrılık da’vasın idüb kendi zamirince cenneti cehennemi var imiş, kendisi bir yüksek köşk üzerinde durur imiş” (“Ma’lum bo‘lishicha, qal’a ichida yashovchi la’natlangan kishi (Qahqaha) o‘zini xudo deb da’vo qilib, o‘zining jannati va do‘zaxini bunyod etgan edi. Uning o‘zi esa baland bir saroy ustida turar edi.”).[3] Asar yakunida ushbu qahramon, ya’ni tangrilik davosini qiluvchi shoh Qahqaha sharmandalarcha halok bo‘ladi. Ko‘rinib turganidek, yuqoridagi har ikki asarda ham ijodkor xalq shohlarni “Qahqaha” muvaqqat nom bilan atash orqali botil e’tiqodli, mazlumlarga zulm qiluvchi johil hukmdorlarning

o'lim oldidagi ayanchli holatini kinoya va istehzo bilan tasvirlaydi, ularning aftoda ahvolidan zaharhanda bilan kuladi. Bulardan ko'rinadiki, qissalardagi "kishi nomlari ko'proq stilistik maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, o'shanga mos holda, tanlangan simvolik xarakterdagi to'qima nomlardan iboratdir".[4]

Qissalarning o'zbek versiyalarida ham, turk versiyalarida ham yuqoridagi kabi real va muvaqqat to'qima nomlarni birdek uchratish mumkin. Ammo muayyan poetik maqsad bilan nomlangan muvaqqat onomastik birliklar o'zbek versiyalarida ko'proq kuzatiladi. Masalan, kofir shohning vaziri Nasir (lug'aviy ma'nosi "yordam beruvchi", "tarafdor", "muxlis"[5], u qissada asl e'tiqodda bo'lgan, hayotda g'alaba qozona olgan inson timsoli), devlar shohining o'g'li Rashid (lug'aviy ma'nosi "to'g'ri yo'lga irshod qiluvchi", asarda tush vositasida iymon keltirgan obraz), shohning vaziri Solih (lug'aviy ma'nosi "xushaxloq, kishiga faqat yaxshilik qiladigan, mo'min-qobil"),[6] asarda Toli Mag'ribiy yurtida tushi vositasida musulmonlikni qabul qilgani uchun tili kesilib, sazoyi qilingan vazir), Qattol (lug'aviy ma'nosi "qotil, o'ldiruvchi, xunxo'r", ko'chma ma'nosi "ashaddiy, yovuz"[7], asarda iymon keltirgani uchun o'z o'g'lining tilini kesgan Salosil qal'asi shohi) kabi real va gapiruvchi to'qima muvaqqat nomlar qissalar matnining lingvopoetikasini ta'minlab turganini ko'rish mumkin. Shu ma'noda, tadqiqotchi I.Xudoynazarov xalq dostonlaridagi nominativ birliklar haqidagi tadqiqotida atoqli otlar (kishi ismlari) ga matn maqsadidan kelib chiqib okkazonal ma'no yuklanishini, natijada esa maqsadli tag ma'noli matn yuzaga kelishini ta'kidlaganda tamomila haq edi.[8]

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, hazrati Ali haqidagi o'zbek va turk xalq qissalarida onomastik birliklarga oid yana bir o'ziga xos jihat mavjud bo'lib, bu holat qahramonning atoqli yoki turdosh ot bilan berilishida ko'zga tashlanadi. Ya'ni qissalarning o'zbek versiyalarida aksariyat epizodik qahramonlarning nomlari keltirilmaydi, balki turdosh otlar (jinsi, ijtimoiy mavqeyi, kelib chiqishi kabi shaxs otlari) bilan berilsa, turk versiyalarida ular atoqli otlar bilan atalib, individuallashtiriladi.

Qissa nomi	Qahramonning atalishi	
	O'zbek versiyasida	Turk versiyasida
"Hazrati Alining imom Muhammad Hanifaning xalos etishlari" ("Muhammed Hanifa beni Gatafan cengi")	Muhtasham shohning qizi	Jamila
"Otashparast Zampirning Hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi" ("Imam Ali'nin Berber Kalesi Cengi")	otashparast Zampirning o'g'li	Beshir
"Otashparast Zampirning Hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi" ("Imam Ali'nin Berber Kalesi Cengi")	otashparast Zampirning onasi	sehrGAR Katana
"Ajdar devning hazrati Ali tomonidan halok etilishi" ("Hazret-i Ali'nin – Allah Keremini Arttirsin-Mağrib Ejderhasi ile Yaptığı Gazâ")	ajdar dev	Jurjan
"Ajdar devning hazrati Ali tomonidan halok etilishi" ("Hazret-i	ajdar devning qizi	Xatija

Ali'nin – Allah Keremini Arttirsin- Mağrib Ejderhasi ile Yaptığı Gazâ")		
--	--	--

Mazkur o'ziga xoslik qahramon obrazining semantik talqinida individuallik va tipiklik o'rtasidagi nisbatning turlicha ekanini ko'rsatib, bu holat har ikki xalqning estetik mezonlari, tarixiy xotirasi va qahramonlik idealiga mos tarzda shakllangani bilan bog'liqdir.

Hazrati Ali qissalarida toponimlar, ya'ni joy nomlari ham asarning ishonchlilik va badiiyligini ta'minlab turgan vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Qissalardagi voqealarning ba'zilar tarixan mavjud bo'lgan makonlarda sodir bo'lsa, ba'zilar badiiy to'qima makonlarda yuz beradi. Tarixiy joylar sifatida faqatgina Madina, Makka, Xaybar, Rum, Shom kabi shaharlarni keltirish mumkin. Qissalardagi mulki Maqar ("Tol Mag'ribiyning hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi" qissasidagi shohning yurti), Shomi Jobiq ("Hazrat Ali tomonidan Ubudiyati Shomiyning o'ldirilishi" qissasidagi Ubudiyati Shomiyning yurti), Navhij qal'asi ("Moliki Ajdar" qissasida raqib qahramon qal'asi), Qal'ai Arshun ("Hazrati Alining Imloqni mahv etishlari" qissasidagi makon), Kan qal'asi, Kan suyu, Kavus viloyati (Kan qal'asi joylashgan), Dush sahrosi, Bobi Azim, Bobi Amik ("Hazrati Ali'ning Kan Kalesi cengi" qissasidagi toponimlar) badiiy to'qima epik makonlardir. Ko'rinib turganidek, epik makonlarda badiiy to'qima yetakchilik qiladi, bu orqali kitobxon qissalarni eshitish davomida o'zi uchun butunlay yangi bo'lgan makonlarga xayolan sayr etadi, asar qahramonlari bilan birga bir-biridan qiziq, yangi sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Ba'zi o'rinlarda to'qima epik makonlarning nega aynan shunday atalishi ham qissa tafsilotlari davomida o'ziga xos tarzda ochiqlanib ketadi. Masalan, qissalarning biridagi qal'a nomini Qon deb atardilar. Ushbu epik makon ham badiiy to'qima o'laroq yuzaga kelgan muvaqqat nom bo'lib, uning nega aynan shunday atalgani sababi asarda shunday izohlanadi: "Bu kaleye Kan Kalese denmesinin sebebi budur ki bu kalenin yedi burcu kızıllı altından idi. Her gün güneş doğup o burçlar kıpkızıl kan rengini alır, yirmi günlük yola ışık verirdi".[9] Ko'rinib turganidek, qissalardagi to'qima epik makonlar shunchaki nomlanmay, muayyan badiiy maqsadni ko'zlagan. Bundan tashqari, qissalarning ba'zi o'rinlarida hazrati Ali tilidan Karbalo dashti nomi ham tilga olinadi. Masalan, "Fathu-l-islom" qissasining bir o'rnida bosh qahramon hazrati Ali o'zini quyidagicha tanishtiradi: "Manam chokari Muhammad Muxtor, xalifai chahoro'mi chahoryor, juftim Fotimai zahro, farzandlarim Imom Hasan bosafu va Imom Husayn shahidi dashti Karbalo, silohim qamqom-u samsomi Zulfiqor, otim sheri Xudo Haydari Karror".[10] Ammo manbalarga ko'ra, bu nom hazrati Alining vafotlaridan keyin yuzaga kelgan toponim hisoblanadi. Rus olimi N.A. Smirnovning aniqlashicha, Husayn (r.a.) Frot daryosi qirg'og'idagi Marie sahrosida o'ldirilgan. Uning boshiga tushgan ko'rgiliklardan so'ng bu sahro "Karbu balo", ya'ni "qayg'u va kulfat makoni" deb nom olgan ekan. Keyinchalik bu ikki so'z bir-biriga qo'shilib, "Karbalo" ko'rinishini olgan va hozirda Husayn (r.a.) mozori joylashgan shahar nomiga aylangan.[11]

Xulosa. Shunday qilib, hazrati Ali haqidagi o‘zbek va turk qissalarining turkcha versiyalari qahramonlar galeriyasining boyligi bilan ajralib tursa-da, ularda gapiruvchi, obraz mohiyatini ochib beruvchi onomastik birliklar qissalarning o‘zbek versiyalariga qaraganda nisbatan kamroq uchraydi. Ammo asardagi ko‘makchi va epizodik obrazlarni nominativ birliklar bilan nomlash turk qissalarida ancha faol ekanligi ko‘zga tashlanadi. Bu holat, ya’ni asarning bir xalq variantida qahramonning atoqli ot (antroponim) bilan nomlanishi uning individuallashtirish ta’minlash, boshqa variantda turdosh otlar (“yigit”, “qiz” va b.) orqali ifodalanishi obrazning tipiklashtirilganligini ko‘rsatadi. Mazkur holat folklor matnlarida individuallik va umumlashtirish kategoriyalarining o‘zaro nisbatini aks ettiradi. Qissalarda qo‘llangan toponimlar ham o‘z o‘rnida ikkiga bo‘linib, geografik nuqtai nazardan mavjud bo‘lgan shahar va qal’a nomlari va badiiy to‘qima makonlarga bo‘linadi. Toponimlar orasida badiiy to‘qima makonlar ko‘pchilikni tashkil qilib, ularning nomlari muayyan poetik maqsad o‘laroq yuzaga kelgani kuzatiladi. Toponimlar miqdori ham o‘zbek qissalariga nisbatan turk versiyalarida ko‘proq kuzatiladi. Bu holatni syujet chizig‘ining kengligi bilan izohlash mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. I. A-D / Mas’ul muharrirlar A.Madvaliyev, D.Xudayberdiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.108.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. IV. Q-S / Mas’ul muharrirlar A.Madvaliyev, D.Xudayberdiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.22.
3. İsmet Çetin. Türk Edebiyatında Hazret-i Ali Cenknemeleri. – Ankara 1997. – S.280.
4. Жўраев Б., Бегматов Э. Атоқли отларни ўрганишга доир баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1966. – №5. – Б. 57.
5. Ан-на‘им ул-кабир. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Наманган, 2014. – Б.692.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. IV. Q-S / Mas’ul muharrirlar A.Madvaliyev, D.Xudayberdiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.699.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жild. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B.265.
8. Qarang: Andaniyazova D. O‘zbek tilida muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025. – B.192-193.
9. Hazret-i Ali Cenklari. Hazirlayan: İsmail Toprak. – İstanbul, 2016. – S.113.
10. O‘zR FA ShI. Asosiy fond, inv. № Q 9279/I. – B.19a. Qarang: Эшонова С. Нисо ва Хоний ижодида “Карбалнома” // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2005. № 1. – Б.78.